



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

IJTIMOIIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon Azamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайbergenovich – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Акхмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зокидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

MAHALLA VA MENEJMENT

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Ta'lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba	4
Abduramanov X., Zokirov Sh. Xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi	15
Xoliqova M. Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi	29
Norqulov H.D., Jumanov Sh.S. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari	40
Sodiqov F.F. Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi	55

OILA VA JAMIYAT

Yulchiyeva D.X. Oilada barqaror muhitni ta'minlashda milliy hunarmandchilikning o'rni	61
Бабаджанова Н. Закономерности функционирования семьи как системы	71
Kholikulova Kh.Yu. Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people	81
Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari	90
Arabov N.U., Nasimov D.A. Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	98

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Bayjonov F.B. Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish	104
---	-----

IJTIMOY PSIXOLOGIYA

Nurmatov A.N. Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community	108
Narmetova Y.K. Sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari	117
Avezova D.G. Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari	126



Avezova Durdona Gafurjon qizi,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti.
humoyun_ilhomovich@mail.ru, avezova_durdona@moiti.uz

AUTIZM SINDROMLI BOLALARDA KOGNITIV JARAYONLAR BUZILISHLARINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Maqolada autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari hamda uning amaliy jihatlari keltiriladi. Autizm sindromli bolalar hayotiy faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillar psixologik tahlil qilinib, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini amalga oshirish, tizimda ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu ilmiy muammo bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari beriladi.

Аннотация. В статье представлены психологические факторы нарушений когнитивных процессов у детей с синдромом аутизма и их практические аспекты. Проведен психологический анализ факторов, тормозящих жизнедеятельность детей с аутизмом, с учетом социально-психологических особенностей детей с аутизмом, особенностей социально-психологических служб в системе их успешной социализации. Также приведены результаты экспериментальных исследований по данной научной проблеме.

Annotation. The article presents the psychological factors of disorders of cognitive processes in children with autism syndrome, as well as its practical aspects. Omillarni psychological analysis, which hinders the vital activity of children with autism syndrome, analyzes the characteristics of socio-psychological service in the system, the implementation of their successful socialization, taking into account the socio-psychological characteristics of children with autism syndrome. Also, the results of experimental studies conducted on this scientific problem are given.

Kalit so‘zlar: autizm, noverbal kommunikatsiya, intellektual layoqat, sensor sezgi, motorika, o‘z-o‘ziga xizmat.

Ключевые слова: аутизм, невербальная коммуникация, интеллектуальные способности, сенсорное восприятие, моторика, уход за собой.

Keywords: autism, noverbal communication, intellectual dignity, sensor intuition, motor skills, self-service.

Kirish. Har qanday davlat siyosatining insonparvar tamoyillarga asoslanishi, jamiyatda aholining nogironligi bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashash uchun nihoyatda zarur hisoblanmish barcha sohadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. Shu bois mamlakatimizda mazkur shaxslar sog'lig'ini himoyalash, ta'lim-tarbiya berish va ijtimoiylashuvlariga qaratilgan keng qamrovli maqsadli chora- tadbirlarni amalga oshirish masalalariga ular hayotini farovonlashtirib borilishining asosiy omili sifatida qarab kelinmoqda. Alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta'limni to'laqonli o'zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olishi lozim. O'z imkoniyatlariga mos va qulay ta'limiy muhitda bilim va ijtimoiy ko'nikmalar, kasb-hunarni egallagan har qanday nogironligi bo'lgan shaxs hayotga tez va qulay moslashadi, unda munosib tarzda o'z o'rnini topadi.

Mavzuning dolzarbligi. Shiddatli tarzda o'zgarib borayotgan jamiyatimizda ta'lim oldiga pirovard maqsad sifatida, sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga erishish belgilanmoqda. Shu maqsadda maxsus ta'lim tizimining sifatini ko'tarish, takomillashtirish masalalariga, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik zaminini yaratishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda mazkur sohada erishilayotgan ijobiy o'zgarishlar psixologlar, pedagoglar hamda turli soha vakillarining yangi yo'nalishlardagi hamkorlik faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Autizm sindromiga chalingan bolalar jamiyat institutsional tuzilmasida muqim o'rnashib ulgurganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi. Alohida ehtiyojlilik ijtimoiy institut sifatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-psixologik moslashuv, tibbiy ekspertiza va hokazo kabi butun bir ijtimoiy tizimga mushtarak faoliyatini, ya'ni ijtimoiy sheriklikni talab etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Hozirgi kunda yordamga muhtoj bolalar va yosh o'smirlarning ta'limiy, uslubiy yordam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog'lom avlod ota-ona faxridir. Sog'lom avlod orzusi ming yillardan beri ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan oilamiz, hayotimiz, intilishlarimiz mohiyati asosiga aylanib ketgan, millatimizga xos ezgu qadriyatga aylangan. O'zbekiston Respublikasi

Shiddatli tarzda o'zgarib borayotgan jamiyatimizda ta'lim oldiga pirovard maqsad sifatida sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga erishish belgilanmoqda.

Autizm asosan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda aniqlash mushkul bo'lgan holatda uchraydi.

Konstitutsiyasining 63-64-65-66 bandlari, “Sog‘lom avlod uchun” Davlat Dasturining 6/41 bandi, “Oila kodeksi” (1998), “Ona va bola Skriningsi” dasturi (1998), “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi (2007), “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” (2009), “Yoshlar yili” (2008), “Barkamol avlod yili” (2010), “Mustahkam oila yili” Davlat dasturlari jamiyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar, o‘smirlarni ijtimoiy qo‘llash, ularga ta‘lim-tarbiya berish kasb-hunarga o‘rgatish, jismoniy chiniqtirish, inklyuziv ta‘lim berish, sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib, o‘z qobiliyati, imkoniyatlarini ko‘rsata olishga asos soluvchi chora-tadbirlar alohida qayd etilgan. 2011-yilning noyabr oyida “Onalik va bolalakni muhofaza qilish” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro simpozium ham shular jumlasidandir. 2014-yilning “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilinishi yurtimizda yosh avlodga bo‘lgan g‘amxo‘rlikdan yana bir dalolatdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yilning 7-sentabrdagi 419-sonli “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazini tashkil etish” haqidagi qarori ham aynan imkoniyati cheklangan, shu jumladan, autist bolalar uchun yaratilgan keng imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan harakatlardan biri hisoblanadi.

Eksperiment natijalari. Autizm miya faoliyatining buzilishi bo‘lib, atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot chog‘ida ularda turli muammolar kelib chiqadi. Ushbu kasallikka erta tashxis qo‘yilishi bemorlarga jamoa orasida o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindrom ayollarga nisbatan erkaklarda ko‘p uchraydi. Shunday fikrlar ham ilgari surilganki, bolalarga qilinadigan vaksinalar autizmga sabab bo‘lishi mumkin. Biroq bu fikr haqiqatdan ancha yiroq bo‘lganligi bois o‘z tasdig‘ini topmagan. Autizm, asosan, 3 yoshgacha bolalarda aniqlash mushkul bo‘lgan holatda uchraydi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi: 1 yoshgacha “gugu”lamaydi (yoki bu chinqiriqni eslatadi), 16 oygacha hech bir so‘z aytmaydi, 2 yoshgacha ikkita so‘zdan jumla tuza olmaydi; nutqqa ega bo‘lmaydi; odamlar yoki hayvonlar harakatiga, turli tovushlarga taqlid qilolmaydi; barobar bo‘lmagan ohangda gapiradi (tovush ohangi va tezligi buzilgan bo‘ladi, robot singari “qotib qolgan nutq”da so‘zlaydi); kishilik olmoshini qanday eshitsa, shundayligicha takrorlaydi; bitta jumlaning takrorlayveradi (exolaliya). Noverbal kommunikatsiya: bola bir yoshgacha predmetlarni ko‘rsatib berolmaydi; imo-ishoralarni qo‘llamaydi; hech bir so‘z, imo-ishoradan foydalanmay, shunchaki katta odamning qo‘lidan tutib predmet oldiga olib boradi va unga shu narsani uzatishlarini kutadi; tanishishga qiziqishni namoyon qilmaydi,

atrofda butkul befarqlikni his qiladi; odamning ko'ziga qaramaydi (yoki juda kam holda qaraydi). Idrok etishda quyidagilar ko'zga tashlanadi: bola uning ismini aytib chaqirsangiz, javob qilmaydi; so'zlayotgan gapingizni tushunmaydi (uni shovqin sifatida idrok etadi); xuddi kar odam kabi taassurot uyg'otganicha baland tovushlarga befarqlikni namoyon etadi; muayyan tovushlarga esa juda ta'sirchan (masalan, kuchukning vovullashidan quloqlarini berkitadi); o'zining oynadagi aksini tanimaydi. Axloqning boshqa xususiyatlari: predmet yoki so'zlarga diqqatini jalb qila olmaydi (diqqatini juda kam muddatga jamlaydi); uzoq vaqt davomida bitta tana harakatini takrorlaydi (masalan, u yoqdan bu yoqqa chayqaladi); vaqti-vaqti bilan kuchli g'azabni his qiladi va namoyon etadi; bitta predmetga uzoq vaqt tikilib turishi mumkin; agar kimdir odatiy hodisalar oqimini o'zgartirmoqchi bo'lsa, qarshilik ko'rsatadi. Ko'pincha ota-onalar farzandi 3 yoshda bo'lsa ham, gapirmayotganligini, boshqa bolalardan ajralib turishini sezib qolishadi. Ayrim hollarda bolalar yaxshi gapirib ketishadi, biroq vaqt o'tishi bilan ularda nutq buzilishi kuzatiladi. Bolalarda nutqning yo'qolishi yoki umuman gapirmasligi ularning rivojlanishida buzilish borligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda bolalar o'zlarini xuddi eshitmayotgandek tutishadi. Tibbiy tekshiruvlar bolaning eshitish a'zolari joyida ekanligini ko'rsatadi. Bunday bola bolalar o'yinlarida o'zini boshqacha tutadi, tez-tez jahli chiqadi, odatlari o'zgaradi, ko'p harakatli bo'ladi. Ular yolg'iz o'ynashni afzal bilishadi. Atrofidagi bolalar bilan muloqotga kirishmaydi.

Autizm sindromi bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- bolalarda intellektual layoqat past bo'ladi;
- o'smir yoshidagilar ruhiy tushkunlik holatiga tushishadi, ularda bezovtalik kuzatiladi;
- ayrim bolalarda o'smirlik davriga kelib, epileptik tutqanoqlar kuzatilishi mumkin;
- 40–70 foiz bemorlarda uyqu bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi.

Autizmi ko'pchilik odamlar shizofreniya, aqli zaiflik va bolalar psixozi bilan adashtirishadi. Autizm sindromi bo'lgan bolalarda taktil yoki sensor sezgining oshganligi qayd etiladi. Shu bois ular odamlarning shovqinini, baland tovushlarni ko'tara olishmaydi. Autizmi bo'lgan bolalarning abilitatsiyasi hamda integratsiyasi bir qancha choratadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda ko'proq ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi, ya'ni tibbiyot xodimlari (psixonevrolog, nevropatolog, pediatr, ortoped-travmatolog, rehabilitolog), psixolog, defektologlar

Ayrim hollarda bolalar yaxshi gapirib ketishadi, biroq vaqt o'tishi bilan ularda nutq buzilishi kuzatiladi. Bolalarda nutqning yo'qolishi yoki umuman gapirmasligi ularning rivojlanishida buzilish borligini ko'rsatadi.

O'ta sensor ta'sirchanlik sharoitida mexanizmning giperkompensatorligi yuzaga kelib, u bir tomondan, psixologik himoyani, boshqa tomondan psixik deprivatsiya hamda kognitiv jarayonlarni rivojlanishidan, shuningdek, idrokdan ham voz kechishni ifodalaydi.

o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borganlaridagina muayyan natijaga erishish mumkin. Bolalar autizmini imkoni boricha erta aniqlash va ularning ijtimoiylashuvi yo'lidagi harakatlarni barvaqtroq boshlash esa kelgusida bunday bolalarning mustaqil hayot kechirishlari uchun zamin tayyorlaydi. Autizm ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishining buzilishi, qiziqish va faoliyatning chegaralanishi bilan xarakterlanuvchi buzilishdir. Autizmga ega shaxslarda ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy kommunikatsiya hamda qiziqishlarning chegaralanganligi asosiy belgilar triadasini tashkil etadi. Autik bolalarga turli ta'sirlarga gipersteziyaning yuqoriligi xosdir: harorat, taktil, ovoz va rang. Doimiy ranglar autik bolalar uchun haddan tashqari yoqimsiz. Atrof olamdan keluvchi bu kabi ta'sirlar autik bolalarni jarohatlaydi. Autizmda asinxroniyaning rivojlanishi harakat jarayonida o'ziga xos namoyon bo'lib, bilish jarayonlari harakat rivojlanishidan ilgarilab ketish, bu geteroxron prinsipning buzilishiga olib keladi. Umuman olganda, umumiy va mayda motorikaning yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi. Muskul gipotonusining borligi bolalar harakatlarining imkoniyatlari holati va o'ziga xosligini aniqlaydi. Bu qovushmagan harakatlar koordinatsiyasi nuqsonlarida, elementar o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini egallashdagi alohida qiyinchiliklarda, barmoqlar bilan ushlab tashlashning shakllanmaganligida, mayda qo'l barmoqlari va kaft harakatlarida namoyon bo'ladi. Autik bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilishda yetarlicha muammolar yuzaga keladi. O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarining rivojlanishi autik bolalarda alohida muammo hisoblanadi. Hattoki eng chaqqon bolalar, alohida iste'dod qobiliyatiga ega bo'lganlari ham hayot va maishiy turmushga moslashmagan bo'ladi. Ularda ham o'z-o'ziga xizmat qilish sekin shakllanadi hamda sifatli rivojlanmaydi, chunki ular hamma narsani stereotip tarzida qabul qiladi. Avval ta'kidlanganidek, bolalar ovqat iste'mol qilishda alohida qiyinchiliklarga duch keladi, kiyimlari pala-partish bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'z-o'ziga xizmat qilish tartib-intizomi ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining shakllanishini o'z ichiga olib, autik bolalarni korreksion jarayonida alohida o'rin egallaydi. Autik bolalarning idroki obyektlar persepsioni senizativ yuqoriligi bilan xarakterlanadi. O'ta sensor ta'sirchanlik sharoitida mexanizmning giperkompensatorligi yuzaga kelib, u, bir tomondan, psixologik himoyani, boshqa tomondan psixik, deprivatsiya hamda kognitiv jarayonlarning rivojlanishidan, shuningdek, idrokdan ham voz kechishni ifodalaydi.

Hozirgi kunda butun dunyoda alohida yordamga muhtoj bolalarni o'rganish, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, ularning oldini olish, maxsus yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya

berish, ulardagi nuqsonlarni korrektsiyalash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiruvchi autizm sindromiga chalingan bolalar soni ko'payayotgani bois bu sindrom haqida ma'lumotlar qulog'ingizga chalingan bo'lsa kerak. Oxirgi 10 yil ichida autizm sindromiga chalingan bolalar soni 10 barobar oshgan. Bu sindrom avvaliga 100000 kishidan 3-4 tasida namoyon etilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib, 10000 kishidan 5-20 tasida uchragan. 2008 yilga kelib esa xar 150 boladan biriga autizm sindromi tashxisi qo'yilgan. Bugungi kunda esa har 54 boladan birida autizm muammosi mavjud. Hozirgi kunda olimlar autizm sindromiga chalingan shaxslarni, asosan, 4 guruhga bo'lib o'rganishmoqda. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-guruh: Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2 yoshgacha bo'lgan bolalar).

Ilk yoshdagi bolalar autizmida bolalar rivojlanishi 4 xil turda bo'ladi.

Ba'zi bolalar atrofdagi voqealarga butunlay bee'tibor bo'ladi. Bolani kuldirish, e'tiborini qaratish juda qiyin. Ular hattoki qorni ochganida ham munosabat bildirmaydi. Taktik muloqotga kirishishni istamaydi. Yana bir guruh bolalar esa tanlab muloqotga kirishishadi. Asosan, otanasi bilan muloqotga kirishadi, taom va kiyim tanlashda ham e'tiborli bo'ladi. Doimiy hayot tarzidan chetga chiqilganda qo'rquv, agressiya kuzatiladi. Yana bir guruh autistik bolalar autistik qiziqishlarga berilgan bo'ladi. Ular doim bir xil, qaytariluvchi harakatlarni bajarishadi. Ular yillar davomida faqatgina bir mavzuda suhbatlashishlari, bir xil syujetli rasm chizishlari mumkin. So'nggi guruhga kiruvchi bolalar muloqotga kirishishlari mumkin. Lekin bu muloqotga kirish jarayoni juda qiyin amalga oshadi. U juda ham ta'sirchan bo'ladi. Birovning fikriga tez beriladi. Bu autizmning yengil turi hisoblanadi.

2-guruh: Bolalar autizmi (2-11 yoshdagi bolalar).

Bolalar autizmida ham ilk yoshdagi bolalar autizmida uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular bir so'z yoki musiqani doimiy ravishda takrorlab yurishadi, ko'nikma va malakalarni egallashga juda qiynalishadi.

3-guruh: O'smirlar autizmi (11-18 yoshdagi bolalar).

Bu yoshdagi bolalar eng oddiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Lekin ko'proq yolg'iz qolishni xohlashadi. Ko'p hollarda ular ruhiy tushkunlik holatida bo'ladilar.

4-guruh. Kattalar autizmi.

Kattalar autizmida shaxsda ruhiyatning jiddiy buzilishi kuzatiladi. U butunlay o'z olamida yuradi, tashqi olamdagi voqea va hodisalarga o'ta be'e'tibor bo'ladi.

Autizmga chalingan insonlar характери 5 guruhga ajratiladi:

➤ Shaxs atrof-muhit bilan umuman muloqotga kirishmaydi.

Ba'zi bolalar atrofdagi voqealarga butunlay bee'tibor bo'ladilar. Bolani kuldirish, e'tiborini qaratish juda qiyin. Ular hattoki qorni ochganida ham munosabat bildirmaydi. Taktik muloqotga kirishishni istamaydi. Yana bir guruh bolalar esa tanlab muloqotga kirishishadi.

***Ijtimoiy muloqot
bilan bog‘liq
muammolar.
Autizm sindromli
insonlar uchun
mimika va
his-hayajonni
ifodalash
huddi qadimgi
yunon tilida
gaplashilgandek
begona nutqqa
o‘xshab tuyuladi.***

➤ Shaxs atrofdegilar bilan faqatgina ba’zi hollarda muloqotga kirishadi.

➤ Shaxs bemalol muloqotga kirishadi, lekin xulqida xudbinlik alomatlari ko‘zga tashlanadi.

➤ Autizm bilinmasdan o‘tadi. U odam og‘ir-bosiq, lekin tez xafa bo‘ladigan bo‘ladi. Barcha qonun qoidalarni qoldirmasdan bajaradi.

➤ Aniq fanlarga qobiliyatli bo‘ladi.

Autizm sindromli insonlarning so‘zlariga qaraganda, ular uchun tashqi olam – ular tushunishlari qiyin bo‘lgan insonlar, voqealar va narsalarning tartibsiz joylashuvidan tashkil topgan makon. Atrof-muhitni tushunmasligi qiyinchiliklar ularda kuchli xavotir hissini uyg‘otadi.

Birinchi navbatda, autizm sindromli insonlar uchun qolgan odamlarni tushunish va ular bilan aloqa qilish katta qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun oila a‘zolari bilan bo‘ladigan doimiy muloqot va boshqa tadbirlar ular uchun og‘ir kechadi. Leo Kanner autizm sindromli shaxslarda yuzaga keladigan muammolarni 3 ta asosiy guruhga ajratdi:

- ijtimoiy muloqot bilan bog‘liq muammolar;
- o‘zaro ta’sir bilan bog‘liq muammolar;
- tasavvur bilan bog‘liq muammolar.

1. Ijtimoiy muloqot bilan bog‘liq muammolar. Autizm sindromli insonlar uchun mimika va his-hayajonni ifodalash xuddi qadimgi yunon tilida gaplashilgandek begona nutqqa o‘xshab tuyuladi. Ular verbal va noverbal nutqda qiyinchilikka duch keladi, ovoz tonini, yuz ifodasini, hazillar, ibora va maqollarni tushuna olishmaydi.

Ba’zi autist insonlar umuman suhbatlasha olishmaydi yoki ularning nutq boyligi chegaralangan bo‘ladi. Lekin ular ham, odatda, boshqa odamlar gaplarini tushunishadi. Bunday insonlar boshqalarga imo-ishora nutqi, kompyuterda yozish kabi alternativ muloqot uslublari yordamida o‘z fikrlarini bildirishni o‘rgana oladilar. Ular to‘g‘ri, aniq to‘xtamlarga rioya qilib suhbatlashuvchi insonlar bilan oson muloqotga kirisha oladilar.

2. O‘zaro ta’sir bilan bog‘liq muammolar. Autizm sindromli odamlar uchun boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini aniqlash va ularni tushunish hamda o‘zlarining tuyg‘ularini bildirish birmuncha qiyin. Ular:

- ko‘pchilik o‘zi bilmagan holda o‘ganib oladigan yozilmagan ijtimoiy qonun-qoidalarni tushunishmaydi;
- boshqa insonning nimani his qilayotganini tushunmaganligi uchun “hissiz” tuyulishadi;
- yolg‘izlikni xush ko‘rishadi;
- qolgan odamlarga “g‘ayrioddiy”, “g‘alati” tuyulishlari mumkin;
- do‘st orttirish va do‘stlikni saqlab qolishga qiynalishadi;

Ular oddiy insonlar tabiiy ravishda egallaydigan muloqot ko'nikmalarini ongli ravishda o'qib, o'rganishlari zarur.

3. Tasavvur bilan bog'liq muammolar quyidagilarni keltib chiqaradi:

- ular voqeaning oqibati sabab bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmaydilar;
- tasavvur qilish, yangilik kiritish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar va mashg'ulotlarda ishtirok etishga qiynaladilar;
- xavf-xatarga olib keluvchi vaziyatlarni tahlil qila olmaydilar;
- kelajakda yuz beradigan o'zgarishlarni o'ylab, maqsadlarini rejalashtira olmaydilar;
- yangi va notanish vaziyatlarning uddasidan chiqishga qiynaladilar;

Bundan ko'rinib turibdiki, autizm sindromli insonlar bilan muloqotga kirishganda ehtiyotkor bo'lish, ularning ruhiy holatini tushunib, ko'maklashish zarur. Buning uchun esa autizm haqida insonlarga ma'lumot berishni yo'lga qo'yish juda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi alohida yordamga muhtoj odamlarni qabul qilishga tayyor emaslik, ularning muammolarini tushunib yetmaslik holati ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ular haqida doimiy ravishda va sifatli darajada ma'lumotlar berib borilishi imkoniyati chegaralangan odamlarni yaxshiroq tushunishga asos yaratadi. Bu sindromni aniqlashda shifokorlar birmuncha qiynaladilar. Chunki unda uchraydigan ba'zi simptomlar normada rivojlanayotgan bolada ham namoyon bo'lishi mumkin. Bolada bu sindromga tegishli 6 ta simptom ko'zga tashlansagina, unga autizm tashxisi qo'yiladi. Shu sababli bu tashxis kech qo'yiladi. Ota-onalar agar farzandi 3 yoshgacha gapirmasa, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishmasa bolani o'ziga xos deb o'ylashadi. Agar ota-ona bolalarda autizm belgilarini sezsa, tezda bolalar psixiatriga murojaat qilishlari zarur. Autizm sindromiga chalingan bolalarga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yilib, samarali davolansa, bir necha yildan so'ng ular jamiyatda o'z o'rinlarini topib, mustaqil yashash va ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi va jamiyatga o'z hissalarini qo'sha oladilar.

Xulosa va takliflar. Autizmning kelib chiqish sabablari ayni vaqtga qadar oxirigacha o'rganilmagan. Ko'pgina mualliflar buni homila vaqtidagi rivojlanish va tug'ilgandan so'nggi ilk bolalik davridagi og'ir kasalliklarning kechirilishi bilan bog'lab tushuntiradilar. Autik bolalarda odatdagidan ko'ra ko'proq miya disfunksiyasi kuzatiladi, organizmda moddalarning biokimyoviy almashinuvida buzilishlar mavjud bo'ladi. Autizm ko'pincha boshqa psixik buzilishlar bilan chambarchas birikma, kompleks muammo tarzida namoyon bo'ladi. Autik bolalarga

Autizmning kelib chiqish sabablari ayni vaqtlarga qadar oxirigacha o'rganilmagan. Ko'pgina mualliflar buni homila vaqtidagi rivojlanish va tug'ilgandan so'nggi ilk bolalik davridagi og'ir kasalliklarning kechirilishi bilan bog'lab tushuntiradilar.

Psixologlar autik bolalarga chet tillari bilan shug'ullanishni tavsiya etadi. Ehtimol, muallimlarning katta miqdordagi sxema va gaplarni tuzishda algoritmlardan foydalangan bo'lganligi uchun ham bunday bolalar o'quv materialini osonroq o'zlashtiradi.

ruhan toliquvchanlik xos bo'lib, ular tezgina jismonan ham toliqib qoladi. Shuning uchun ularga ishning individual tarzi zarur bo'lib, uning diqqatini bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga ko'chirish sharoitlarining yaratilishi muhimdir. Autik bola bilan uyda ishlab, ta'lim berayotgan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kuzatishicha, bunday bola bir faoliyat turini chalg'imasdan 10 daqiqa davomidagina bajara olgan. Zero, u bola bilan individual tartibda ishlagan. Maktabgacha ta'lim muassasasida bu muammoni osonlikcha hal etish mumkin: bolaga qurbi yetmaydigan topshiriqlarni berish kerak emas. Maktabda esa o'qituvchi bolada toliqish alomatlari kuzatilganda yoki unda norozilik alomatlari paydo bo'layotganda, unga berish ko'zda tutiladigan kartochkalarni oldindan o'ylab topib, individual topshiriqlarni yozib qo'yishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, autik bolalarga maqsadsiz monoton (bir xil) tartibdagi harakatlar, tebranishlar xosdir. Ularni stereotip ritmlardan chalg'itish uchun hissiyotlarga boy ritmik o'yinlar va raqsga oid harakatlardan foydalanish mumkin.

Doimiy tartibdagi mashg'ulotlar harakatlardagi buzilishlarning kamayishiga imkon beradi. Agarda bola siz unga taklif qilayotgan talab va yo'riqnomalarni qabul qilmasa, bolani ularni bajarishga mutlaqo majburlamang. Yaxshisi, o'zi nimani qanday qilib bajargisi kelayotganiga yaxshilab e'tibor qarating, u uchun nima qiziq bo'lsa, shuni bajarishiga ko'maklashing. Bu bola bilan aloqa o'rnatib olishingizga yordam beradi. Psixologlar autik bolalarga chet tillari bilan shug'ullanishni tavsiya etadi. Ehtimol, muallimlarning katta miqdordagi sxema va gaplarni tuzishda algoritmlardan foydalangan bo'lganligi uchun ham bunday bolalar o'quv materialini osonroq o'zlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Каннер Л. «Аутические нарушения аффективного контакта» в переводе В. Е.Кагана/ Л.Каннер // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2010. № 1. – С. 85–88
2. Шрамм Р. Детский аутизм и АВА/ Р. Шрамм. – Москва. 2013. – С.208
3. Autizm: Innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi II Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya to'plami. – B. 129–131
4. Nurmatova D.G. "Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy - metodologik asoslari". – 2020. – B. 46-52
5. Bola va zamon jurnali. – № 8, 2019 yil.
6. <http://www.who.uz>

“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «МАХАЛЛЯ И СЕМЬЯ»
“MAKHALLA AND FAMILY” RESEARCH INSTITUTE

IJTIMOIY BOSHQARUV

СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

SOCIAL MANAGEMENT

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvoohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangiheyot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.